



AYOLLAR BIZNESDA: CHEGARASIZ YETAKCHILIK

Rahmatullaeva Lobarxon

Pace University, Lubin Biznes Maktabi

Biznes Boshqaruvi Magistraturasi (MBA)

Biznes Analitika yo'nalishining 2-bosqich talabasi

Annotatsiya . Maqolada ayollarning biznesda muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, o'rganiladi. Shuningdek, ayollarning biznesdagi qaror qabul qilish jarayoni, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirishdagi roli va motivatsiya faktorlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga maqola ayollarni muvaffaqiyatiga olib keladigan omillarni chuqur o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ayollar, muvaffaqiyat, izchillik, empatiya, kreativlik, stressga bardoshlik, qaror qabul qilish, motivatsiya. **blog yuritish, elektron tijorat, ijtimoiy tarmoq menejeri.**

WOMEN IN BUSINESS: LEADERSHIP BEYOND BORDERS

Abstract. The article examines the main factors affecting women's success in business. It also focuses on the decision-making process of women in business, their role in the development of social networks, and motivational factors. At the same time, the article helps to deeply study the factors that lead to women's success.

Keywords: Women, success, consistency, empathy, creativity, stress tolerance, decision-making, motivation. blogging, e-commerce, social network manager



ЖЕНЩИНЫ В БИЗНЕСЕ: ЛИДЕРСТВО БЕЗ ГРАНИЦ

Аннотация. В статье рассматриваются основные факторы, влияющие на успех женщин в бизнесе. Также особое внимание уделяется процессу принятия решений женщинами в бизнесе, их роли в развитии социальных сетей и мотивационным факторам. Кроме того, статья способствует глубокому изучению факторов, способствующих успеху женщин.

Ключевые слова: Женщины, успех, последовательность, эмпатия, креативность, стрессоустойчивость, принятие решений, мотивация, блоггинг, электронная коммерция, менеджер социальных сетей.

Kirish . Ayollar o'zlarining kuchli mas'uliyat tuyg'usi, aql-zakovati, qat'iyatligi va hamdardligi bilan biznesda o'zining o'rnini osongina topa oladi. Turli korxonada va tashkilotlarda rahbar lavozimida ayollarni ko'rish odatiy holga aylandi. Biznesda ayollar muvaffaqiyat qozonishining bir qancha sabablari bor:


- Ayollar o'z ishlariga ma'suliyat bilan yondashishadi,
- Ish va shaxsiy hayotni birdek olib borishga intilishadi,
- Ayollar kichik kapitaldan ham unumli foydalanishni uddalashadi.

Asosiy qism. Ayollar ko'pincha o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatli bo'ladilar. Ayollar o'z bizneslarini rivojlantirishda qiyinchiliklarga qarshi turish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishga tayyor. Ayollarda yuqori empatiya darajasi bo'lishi ularning mijozlar bilan samarali aloqalar o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Empatiya yordamida ayollar mijozlarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunadilar, bu esa ularning biznes strategiyalarini to'g'ri shakllantirishda yordam beradi. Bu xususiyat, ayniqsa, xizmat



ko'rsatish va savdo sohalarida muvaffaqiyat uchun juda muhim. Ayollar biznesda yangiliklar yaratish va kreativ yechimlar izlashda muvaffaqiyatli bo'ladilar. Ular yangi g'oyalar va biznes modellari ishlab chiqishda ijodiy yondashuvlarga ega bo'lishadi. Innovatsion fikrlash biznesni raqobatbardosh qilish va bozor talablariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Avvalo ayollar uchun kam kapital bilan boshlaydigan ammo rivojlanish , yuritish oson bo'lgan daromadli sohalarni tahlil qilib olsak. Hozirda ayollar tezlik bilan rivojlanayotgan, muvaffaqiyatga erishayotgan, kam mablag' va kam vaqt energiya talab etadigan bazi onlayn (enternet tarmoqlar orqali yuritiladigan) sohalar haqida gaplashsak :

 **Blog yuritish.** Bu juda yaxshi biznes g'oya, ayniqsa siz yozish qobiliyatiga ega bo'lsangiz. Blogger sifatida istalgan joydan, istalgan vaqtda ishlashingiz mumkin. Sizga kerak bo'lgan narsa – omma e'tiborini tortadigan qiziqarli maqolalar yozish. Kuzatuvchilaringiz qancha ko'p bo'lsa, daromadingiz shunchalik yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, trafikni oshirish uchun blogingizda reklama qilishingiz mumkin. Siz oladigan pul miqdori blogingiz qanchalik qiziqarli bo'lishiga bog'liq. Bu soha ham ayollarning kirishimlilik , qiziquvchanlik ma'lumotlarning tarqata olish qobiliyatlarini ochib beradi. Ayollar blok yurishda agarda mutaxasis bulsa o'z sohasi doirasida yoki uzlari qiziqgan boshqa sohalarni ham qamrab olishlari mumkin. Asosiysi siz yunalishni boshlaganingizda kam mablag' bilan boshlashingiz mumkin. Xattoki , agar siz sog'lom turmush tarzi muxlisi bo'lsangiz va odamlarga yordam berishni yaxshi ko'rsangiz, bu sizni yoqtirgan ishingiz bilan shug'ullanishga





imkon beradigan biznes g'oyalardan biridir. Buning uchun avval to'g'ri ovqatlanish kurslarida o'qib, sertifikat olishingiz kerak. Albatta siz har qanday sohani boshlashdan avval siz sohaga doir ma'lumotlarga ega bo'lishingiz lozim .

✚ **Elektron tijorat.** Bugungi kunda odamlar internetda ko'plab mahsulotlarni sotmoqda. Turli mamlakatlardagi tomonlar o'rtasidagi biznes operatsiyalari onlayn rejimda amalga oshiriladi. Sizning elektron tijorat platformangiz sumkalar, poyabzal, kiyim-kechak, terini parvarish qilish va boshqalar kabi turli xil mahsulotlarni taklif qilishi mumkin. Buning uchun telegram va instagramda sahifa yuritish ayni muddao. Agar siz juda ijodiy odam bo'lsangiz va qo'lda tayyorlangan hunarmandchilikni yarata olsangiz, ularni sotish haqida o'ylab ko'ring. Siz zargarlik buyumlari, charm hamyonlar, daraxt lampalari va boshqalar kabi son-sanoqsiz chiroyli qo'l san'atlarini yasab, sotishingiz mumkin. Bugungi kunda savdoni amalga oshirishda electron savdao bir muncha qulay , ya'ni ko'proq haridorlar jalb qilishingiz . Agar sizning fikringizcha, odamlarni qiziqtiradigan ko'nikmalingiz bo'lsa, odamlar sizdan o'rganishi mumkin bo'lgan onlayn darsni boshlashingiz mumkin. Boshlash uchun sizga kerak bo'lgan yagona narsa – yaxshi kamera, suratga olish dasturi va yaxshi tahrirlash qobiliyati. Ushbu biznes g'oyasi ko'p foyda keltiradi. .

✚ **Virtual yordamchi.** Bu o'ta band insonning virtual shaxsiy yordamchisi bo'lishdir. Sizdan moslashuvchanlikni talab etadi. O'zingizga qulay vaqtda masofadan turib ishlashingiz mumkin. Siz ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlarini rejalashtirish, qayta ishlashni boshqarish, qo'ng'iroqlarga javob berish, bank operatsiyalarini bajarishga javobgarsiz va shunga uxshash jismoniy mehnat kam ta'lab etadigan ishlar bilan mashg'ul buladigan soha . Ayollar bunday sohaga jalb etilishi ularning.



✚ **Ijtimoiy tarmoq menejeri.** Ayollar uchun yana bir ajoyib biznes g'oya – bu ijtimoiy media menejeri, ya'ni SMMchi bo'lish. Ijtimoiy media menejeri sifatida siz mijozlaringizning akkauntlari muammosiz ishlashini ta'minlay olasiz. Kontentni nazorat qilasiz. Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga ko'proq kuzatuvchilarni jalb qilish orqali mijozlaringizga o'z bizneslarini rivojlantirishga yordam berasiz. Albatta bu sohani boshlashdan avval siz SMM kurslarga borishingiz, zarur bilimlarga va malakaga ega bo'lishingiz lozim. Bu sohani bilim va malakalarsiz boshlash befoydadir.

✚ **YouTube vloger va Elektron jurnallar.** YouTube kanali orqali o'z biznesingizni boshlashingiz mumkin. Agar sizda yuqoridagi sohalarga doir mahoratingiz bo'lsa va odamlarga ularni o'rgatadigan videolar olishingiz mumkin. Bu katta investitsiyalarni talab qilmaydi. Sizning kuzatuvchilaringiz qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha ko'p pul ishlaysiz. Texnologiya va internetning rivojlanishi tufayli har qanday ishni uddalash mumkin. Siz o'zingizning elektron jurnalningizni ochsangizchi? Siz onlayn jurnalda ishlash uchun ish taklif qilishingiz va bosh muharrir sifatida faoliyat yuritishingiz mumkin. Akkaunt yoki saytga obuna modelini yo'lga qo'yib, siz oyiga kerakli daromadni olsangiz bo'ladi. Internet sizga katta auditoriyani beradi, shuning uchun o'zingiz e'tibor qaratmoqchi bo'lgan mavzularni va maqsadli auditoriyangizni tanlashingiz mumkin. Bu vaqt va fidoyilikdan boshqa sarmoya talab qilmaydi.



✚ **Fotograflik.**

Fotografiyani yaxshi ko'radigan ayollar uchun ajoyib biznes g'oya. Ijodiy qiziqish va bo'lsa, onlayn kurslarda fotograflikning boshlang'ich bilimlarini olish muammo emas. Siz portret, peyzaj va moda fotografi bo'lishingiz mumkin. Shuningdek, siz turli



tadbirlarni suratga olsangiz bo‘ladi. Biznesni boshlash sizdan yaxshigina kapital talab qiladi. Chunki sizga yaxshi kamera, obyektiv va boshqa zarur jihozlar kerak bo‘ladi. Shuningdek, mijozlarga ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan portfolioga ega bo‘lish juda muhimdir.

✚ **Repetitor.** O‘qituvchilik – bu foydali biznes, ayniqsa oldingi tajribangiz bo‘lsa. Siz har qanday fan bo‘yicha odamlarga o‘rgatadigan biznesni boshlashingiz mumkin, siz bolalar uchun uyda yoki onlayn o‘qituvchi bo‘lashingiz mumkin. Ta‘lim berishingiz mumkin bo‘lgan turli xil onlayn platformalar mavjud. Ayollar uchun bu sohada oilaga va kareraga baravar vaqt ajrata oladigan soha turkumiga kiradi .

✚ **Shaxsiy stilist.** Ushbu biznes g‘oya ham moda dizayniga o‘xshaydi, lekin modalar uyiga ega bo‘lish shart emas. Agar siz modani yaxshi bilsangiz va odamlarga qanday kiyinish haqida maslahat bera olsangiz, buni pul evaziga qilish haqida o‘ylab ko‘ring. Boshlash uchun katta kapital kerak emas, faqat oilangiz va do‘stlaringiz bilan boshlashingiz, o‘z ishingizni e‘lon qilishingiz, ijtimoiy tarmoqlaringiz orqali biznesingizni rivojlantirishingiz, mijozlarni topishingiz va pul ishlashingiz kifoya. Odamlar sizning ishingizda juda yaxshi ekanligingizni ko‘rsa, sizning biznesingiz hech qachon muvaffaqiyatsiz bo‘lmaydi.

Xulosa . Biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun yuqori darajada stressga bardoshlik talab etiladi. Ayollarda esa bu jarayon ikki hissa og‘irroq o‘tadi . Ayollar ko‘pincha ish va oilaviy majburiyatlarni balanslashda va turli qiyinchiliklarga duch kelishda yuqori darajada stressni boshqarishlari bilan ajralib turishadi . Bu ularning biznesdagi qiyinchiliklarga nisbatan chidamliligini oshiradi va yuqori natijalarga erishishda muhimdir. Ayollar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish orqali qarorlar qabul qilishda mustahkam turadilar. O‘ziga bo‘lgan ishonch, ularga yuqori darajada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan xatarlarni olish va yangi



imkoniyatlarni sinab ko‘rishga yordam beradi. Maqolada ko‘rsatib o‘tilgan omillar , onlayn biznes boshlash va yo‘nalishlar albatta ayollar uchun foydali ma’lumotlar hisoblanib qolmay, ularda yangi g‘oyalar, kreativ fikrlar uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Business New Europe (BNE, 2021), Special Report: Uzbekistan Rising (December 2021).
2. NikkiLaMarko.<https://smallbusiness.chron.com/problems-smallscalebusinesses12355.html>
3. Kholmamatov Diyor Haqberdievich. Development of Customer Service Delivery System in Wholesale Trade. Indonesian Journal of Law and Economics Review, 2019
4. <https://yoshlarkelajagimiz.uz/2022-yildagi-ayollar-uchun-22-ta-eng-yaxshi-biznes-goyalar/>
5. www.stat.uz